# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND FILIALI**

# “TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-ME’YORIY HUJJATLARI”

**“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun**

**O‘qituvchi: Begimqulov Zarif Axmadovich**

# MAVZU: TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA HUQUQIY-ME’YORIY HUJJATLAR TUSHUNCHASI VA TURLARI

## REJA:

- Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish. Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda huquqiy-me’yoriy hujjatlar tushunchasi.
- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlarning asosi.
- O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining mazmun-mohiyati.

**O‘zbekiston Respublikasining Qonuni «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida». 20.04.2021 yil O‘RQ-682-son**

# ME’YORIY-HUQUQIY HUJJAT

**Me’yoriy-huquqiy hujjat** - bu normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi qonunga muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir

**Normativ huquqiy hujjatlarning turlariga quyidagilar kiradi:**

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
- O‘zbekiston Respublikasining qonunlari
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari
- Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari
- Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari

**QONUN HUJJATLARI:**

- Konstitutsiya
- Konstitutsiyaviy Qonunlar
- Joriy  Qonunlar



**Qonun**-O‘zbekiston Respublikasida eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan yoki referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinadigan oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ hujjat.

**Konstitutsiya** (lotincha: *constitutio*-“tuzilish”, “tuzuk”) — bu davlatning asosiy qonuni.



**2023-yil 1-may, O‘RQ-837-son**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi: Muqaddima, 6 bo‘lim, 27 bob, 155 moddadan iborat.



# O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasi




- Har kim ta’lim olish huquqiga ega.
- Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi.
- Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.
- Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir.
- Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir.
- Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.



# O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni:



**637-son, 2020-yil 23-sentabr qabul qilingan, XI bob, 75 modda**

**464-I-son, 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan, V bo‘lim, 34 modda**

**636-XII-son, 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan, VII bo‘lim, 44 modda**



# O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni mamlakatimiz ta’lim tizimining eng muhim huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi.




11 ta bob, 75 ta modda

ta’lim ustuvorligining tan olinishi, ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi, ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi, ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi va hokazo.

qonunning ***maqsadi*** ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

**“Xalq so‘zi”** gazetasida e’lon qilingan va 24.09.2020 yildan kuchga kirdi.

**“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun**

1-bob. Umumiy qoidalar;

2-bob. Ta’lim tizimi, turlari va shakllari;

3-bob. Ta’lim tizimini boshqarish;

4-bob. Ta’lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish;

5-bob. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi;

6-bob. Ta’lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari;

7-bob. Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish

8-bob. Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish. Xorijiy davlatda olingan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatni tan olish, ta’lim sohasidagi hujjatlarga apostil qo‘yish;

9-bob. Ta’limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

10-bob. Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik;

11-bob. Yakunlovchi qoidalar.



**Ta’lim olish huquqi**

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

*O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni* **5-modda.**







# Ta’lim turlari quyidagilardan iborat:



maktabgacha ta’lim va tarbiya;



umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;



professional ta’lim;



oliy ta’lim;




oliy ta’limdan keyingi ta’lim;



kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;




maktabdan tashqari ta’lim

*O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni* 7-modda.

## Ta’lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

**shakllari:**

**T A ‘ L I M**

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta’lim;
- oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;
- katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;
- inklyuziv ta’lim;
- eksternat tartibidagi ta’lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

# E’tiborlaringiz uchun rahmat!



- **rasmiy veb-sayt**
- **http://www.samsportedu.uz**

- **maxsus rasmiy telegram kanal**
- **https://t.me/sfmalaka**